

MAXSUS MAKTABLARDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI TANLAB OLISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV

Muzaffarova Xayitgul

JDPI Maxsus pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Asqarova Nargiza

Defektologiya yo'nalishi IV-kurs talabasi

Annotasiya:Maqolada maxsus maktablarga imkoniyati cheklangan bolalarni tanlav olish va ularni ta'limga jalb qilish, bu masala yuzasidan respublikamizda qabul qilingan qarorlar taxlil qilingan.

Kalit so'zlar. Bolalar, nogiron, zaif, kamchiligi bor, og'ir daraja, majruh bola, qonun, qaror.

Jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlansh yuz berayotgan bir vaqtda Respublikamizning ravnaqini ko'zlash maqsadida asosiy e'tiborni yoshlarning har tomonlama etuk qilib o'stirishga qaratishimiz lozim. Maqsad yosh avlodni voyaga etguncha sog'lom o'stirish, rivojlantirish bo'lsa, jamiyatimizda yana yosh avlod-nosog'lom, ya'ni psixik va jismoniy rivojlanishda, nuqsoni, kamchiligi bor, ya'ni nogironlar ham rivojlanishga, sog'lom tengdoshlari qatorida barcha huquqlarga egadirlar. Bunday bolalar nogiron, zaif, kamchiligi bor yoki juda og'ir darajada bo'lsa, majruh bola deb ataladi. Ular albatta jamiyatimizda sog'lom avlod tug'ilishiga va o'stirishga to'siq bo'ladi, chunki sog'lom ota, sog'lom onagina sog'lom farzandni bunyod etadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunidayoq Respublika hukumati yosh avlodni sog'ligi, ta'lim hamda tarbiyasi masalasiga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu ishlarning amaliy echimi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'ini – maktab bilan bog'liq.

Istiqlol davridaga qadar nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim tarbiyasi yopiq mavzu hisoblanib, asosan ular "O'qitiladigan va o'qitilmaydiganlar toifasiga tabaqalashtirilar edi. Bu xol bunday bolalarning reabilitatsiya, korrektsiya, ijtimoiy hayotga moslashuvlari va integratsiyalashuv (uyg'unlashuv)lari masalalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat

tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF 5270-sonli Farmoni nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo‘yicha komissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ularni kasbga o‘qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarning ahvoli kompleks va chuqur o‘rganilgandan so‘ng qabul qilindi.¹ Ushbu farmon ijrosida Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturiga muvofiq BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi talablari va xalqaro standartlarni, shuningdek, “nogiron” so‘zi o‘rniga “nogironligi bo‘lgan shaxs” atamasidan foydalanishni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-sonli qonuni qabul qilindi. Lekin hujjat hali kuchga kirgani yo‘q, ushbu Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.²

Ta'lim to'g'risidagi qonun bola huquqlari to'g'risidagi Konventsiyaga, shuningdek BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi Qonuniga va yuqorida ta'kidlanganidek, nogironlikka zamonaviy yondashuvlarga asoslanadi. Lim mazmuniga oid me'yoriy hujjatlarni yangilash jarayoni boshlandi. Shu munosabat bilan amaliyotda alohida ehtiyojli bolalar ta'limiga yangicha yondashuvlar zarurligi o'z aksini topgan o'zgartirishlar kiritish lozim.

Hukumatimiz O'zbekistonda alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan hujjatlarni tasdiqladi. Jumladan, umumta'lim

¹ <https://lex.uz/acts/-3436192> “O‘zbekiston respublikasi prezidentining nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-sonli farmoni;

² <https://lex.uz/docs/-5049511> O‘zbekiston Respublikasi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ-641-sonli qonuni;

maktablarida alohida ehtiyojli bolalar uchun boshlang'ich korreksion sinflar ochish tartibi belgilandi.

12 oktyabr kuni Vazirlar Mahkamasi tomonidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar tasdiqlandi. Hujjat Prezidentning 13 yil 2020 oktyabrdagi "alohida ta'limga muhtoj bolalar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan."

2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tizimini takomillashtirish va ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarini o'z ichiga oladi. sifatni yaxshilash uchun quyidagi asosiy ustuvorliklarga ega:

- * Alohida ehtiyojli bolalar uchun ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- * Ushbu ta'lim muassasalarini turli kasblar bo'yicha o'qitish uchun zarur adabiyotlar, o'quv qo'llanmalari, moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ta'lim muassasalarini maxsus jihozlar (ko'tarish moslamalari, rampalar, to'siqlar va boshqalar) bilan ta'minlash.), shuningdek tegishli xodimlar (maxsus o'qituvchilar, bolalar psixologik va pedagogik nazorat mutaxassislari);

- * Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni moslashtirish va integratsiya qilish uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash va boshqalar.

Qarorda umumta'lim muassasalarida alohida ehtiyojli bolalarni inklyuziv o'qitish to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. Bu degani:

- * inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari;

- * Maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich korreksion darslarni tashkil etish tartiblari va alohida ehtiyojli bolalar uchun o'quv jarayoni;

* Bolalarni inklyuziv ta'limga va asosiy tuzatish mashg'ulotlariga qabul qilish;

Inklyuziv ta'lim va boshlang'ich korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari*.

Bundan tashqari:

* jismoniy, aqliy, hissiy yoki intellektual nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari;

* sanatoriy-kurort tipidagi davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari;

* Jismoniy, aqliy, hissiy yoki intellektual nuqsoni bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun uyda yakka tartibda o'qitish to'g'risidagi Nizom ham tasdiqlangan.

Qarorda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida alohida ehtiyojli bolalar uchun kasb-hunarga o'qitish kurslarini tashkil etish ham ko'zda tutilgan. Yuqorida aytilganlarning barchasi va qabul qilingan barcha qarorlar rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda, ularning kamchiliklarini maxsus ta'lim muassasalarida bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoning etakchi tashkilotlaridan biri YUNESKOning so'zlariga ko'ra, nogiron bolalarning atigi uchdan bir qismi maxsus ta'limga jalb qilingan. Bugungi kunda dunyoda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish majburiy va majburiy bo'lmagan mamlakatlar mavjud. Masalan, Chili, Gretsiya, Italiya, Peru, Turkiya, Gonduras va boshqa mamlakatlarda aqli zaif bolalarni tarbiyalash majburiy emas.

Ko'rib turganingizdek, rivojlangan davlatlar borligiga qaramay, maxsus ta'limga e'tibor sezilmaydi. Biroq, nogiron bolalarni davolash qonuniy ekanligiga qaramay, hali ham ta'limga qabul qilingan bolalarning past foiziga ega mamlakatlar mavjud. Masalan, mamlakatda nogironlar sonini 100% deb olsak, AQShda bolalarning 20-25%, Kanadada 40%, Fransiyada 25% va Yaponiyada 3,2% maxsus ta'lim bilan qamrab olingan. Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarning jarayonda qo'llanilishi, ta'lim obyektlarining multimedia vositalari bilan ta'minlanishi kabi qator dolzarb vazifalar umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan bir qatorda imkoniyati

cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun ham dolzarblik kasb etadi. Pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashga innovatsion yondashuvlarni qo'llash va ulardan mazmun-mohiyatiga ko'ra to'g'ri foydalanish masalasi maxsus maktablar oldiga qo'yilgan eng asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Bunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ishlayotgan pedagog-defektologlar faoliyatiga ijodiy yondashishi, erishilgan natijalar samaradorligini tahlil qilishi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun aniq rejalar bilan yangi o'quv yilini boshlashi lozim. Shularni inobatga olib, sho'ba yig'ilishlarini olib borishda metodistlar quyidagilarga e'tibor qaratishlari lozim:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 13-sentabrdagi «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida»gi 256-sonli qarori asosida tasdiqlangan «Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) to'g'risida»gi nizom asosida faoliyat olib borish;
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi qarori asosida amalga oshirilgan ishlardan saboq olish;
 - imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan (ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi, tayanch harakat a'zolari shikastlangan) ta'lim muassasalari uchun tatbiq etiladigan o'quv reja, 2015-2016-o'quv yilida chop etilgan darsliklarga kiritilgan o'zgartirishlar haqidagi ma'lumotlarni pedagog xodimlarga yetkazish;
 - o'qituvchilarga darslarda axborot-kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, bilimlarni kengaytirish bo'yicha tavsiyalar berish;
 - tarqatma materiallarni tayyorlashda universallik va sifatga e'tibor qaratish.
- Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun quyidagi yo'nalishlarda sho'ba yig'ilishlari tashkil etiladi:

- 1) Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar (kar va zaif eshituvchi) maktab-internatlari sho'basini;
- 2) Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar maktab-internatlari sho'basini;
- 3) Yordamchi maktab, maktab-internatlar sho'basini (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar);
- 4) Mehribonlik uyi tarbiyachilarining sho'basini.

Hususan O'zbekiston Respublikasida nuqsonli bolalarni mahsus ta'limga jalb etish anchagina takomillashgan. Buni qonun doirasida ko'rib chiqadigan bo'lsak "Xalq ta'limi qonunida takidlanishicha o'zlarining jismoniy va ruhiy nuqsonlari –asosida umumta'lim maktablarida ta'lim tarbiya olishga qodir bo'lmagan bolalar uchun mahsus umumta'lim maktablari va maktab internatlari tashkil etiladi.

Bu muassasalarda nuqsonli bolalar ta'lim tarbiya olish va davolanish bilan birga ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishlari uchun ham imkoniyat yaratiladi". Bu qonunni ijrosini ta'minlash mahsus ta'lim muassasalari zimmasiga yuklatilgan vazifalardan biri deb qarashimiz mumkin. Hududlardan nuqsonli bolalarni aniqlash va ularni ta'lim muassasalariga jalb etishda muassasa o'qituvchilari tarbiyachilari oldida birmuncha muommolar yuzaga kelmoqda. Jumladan: ota-onalarning o'z farzandlarining nuqsonidan uyalib ularni uyda parvarishlash, muassasa mazmuniga tushunmay ko'r-ko'rona xulosa chiqarayotgan ota –onalar oramizda uchrab turibdi. Ularni tushuntirish yo'li orqali fikrlarini o'zgartirib bo'lmaydi. O'qituvchi tarbiyachilar ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishga urinishmasin xatti harakatlari ba'zida besamar ketmoqda. Nogiron bolani tarbiyalash, kamol toptirish murakkab muammolardan biri bo'lib, eng asosiy tarbiyachi onadan yuksak diqqat - e'tiborni, g'amxo'rlikni, bardoshni, porloq kelajakni, ishonchni bilim va xushmuomalikni talab etadi. Shuningdek ular normal hamda nogiron bolalar rivojlanishi haqidagi fiziologik bilimlarga mukammal ega bo'lmoqliklari, tibbiyot hodimlari hamda defektolog-o'qituvchilar bilan uzviy hamkorlikda bolani tarbiyalash va hayotga moslash yo'llarini izlashlari lozimdir.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ota-onasi eshitmaydigan oilada tariyalanayotgan kar bolalarning barchasida ikkilamchi nuqson sifatida psixik rivojlanishning sustlashganligi kuzatiladi. Erta aralashuv bunday bolaga samarali yordamning omilidir. Bunday erda yordam ilk yoshda aniqlangan nuqsonlarning yarmini bartaraf etishga va bir qator bedavo kasalliklarni muvaffaqiyatli kompensatsiya qilishga imkon yaratadi.

Erta interventsianing majmuaviy xarakterda ekanligini ta'kidlash lozim, bunga tibbiy yordam, ijtimoiy-maishiy sharoitlarni va oiladagi ichki munosabatlarni (onani go'dakni rivojlanishida muammolari bo'lgan go'dakni parvarishlash va rivojlantirishga o'rgatishni ham kiritgan xolda) yaxshilash, psixolog, logoped, pedagog, okkupatsional terapevt bilan mashg'ulotlar kiradi.

Ijtimoiy muhit insonning barcha oliy psixik funksiyalarini rivojlanishining manbai, sharti hisoblanib, ular hayot davomida shakllanadi va o'zining tabiatiga ko'ra ijtimoiydir. Tafakkur, xotira, nutq avval muloqot, jamoaviy faoliyat jarayonida o'ziga xos "psixologik qurollar", simvollar, belgilardan foydalanish malakalarini bilib olish orqali o'zlashtiriladi.

Ushbu psixologik qurollar insonning tarixiy rivojlanishida yuzaga kelgan madaniyat elementlaridir. Sun'iy yuzaga kelgan madaniy sistemaga tovushli va daktil nutq, ko'ruv alifbosi va Brayl alifbosi, mnemotexnik usullar kiradi. SHu tarzda psixik funksiyalarning ta'lim va tarbiyaga bog'liqligi namoyish etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Scienceweb academic papers collection*.
2. Muzaffarova, X. (2021). ХАРАКАТ-ТАЯНЧ А'ZOLARI JAROHATLANGAN BOLALAR. *Scienceweb academic papers collection*.
3. Muzaffarova, X. (2021). ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ УМЕНИЙ И НАВЫКОВ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ С НАРУШЕНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТА. *Scienceweb academic papers collection*.

4. Muzaffarova, X. (2020). Aqli zaif o'quvchilarning muloqot munosabatlarining pedagogik–psixologik asoslari. *Scienceweb academic papers collection*.
5. Muzaffarova, X. (2020). АҚЛИ ЗАИФ БОЛАЛАР БИЛАН КОРРЕКЦИОН-РИВОЖЛАНТИРИШ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШГА ЯНГИЧА ЁНДОШУВЛАР. *Scienceweb academic papers collection*.
6. Muzaffarova, X. (2020). Inklyuziv ta'lim-yosh avlodni ijtimoiy himoyalashning muhim omili sifatida. *Scienceweb academic papers collection*.
7. Muzaffarova, X. (2021). ТА'ЛИМ–ТАРБИYA JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI. *Scienceweb academic papers collection*.
8. Muzaffarova, X. (2021). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган логопедик машғулотларни ўйинлар асосида ташкиллаштириш. *Scienceweb academic papers collection*.
9. Muzaffarova, X. (2021). HORIJY MAMLAKATLARDA AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIV BORILADIGAN ISHLAR MAZMUNI. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Muzaffarova, X. (2021). BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Muzaffarova, X. (2021). INKLYUZIV TA'LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI. *Scienceweb academic papers collection*.
12. Muzaffarova, X. (2021). МАКТАБГАЧА ТАРБИYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. *Scienceweb academic papers collection*.
13. Muzaffarova, X. (2021). BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR. *Scienceweb academic papers collection*.
14. Muzaffarova, X. (2020). MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI TA'LIMGA JALB ETISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR. *Scienceweb academic papers collection*.

15. Muzaffarova, X. (2020). Болаларнинг мактабга психологик тайёргарлиги. *Scienceweb academic papers collection*.
16. Muzaffarova, X. (2020). Bolalarda nutq buzilishlari va ularga korreksion yondashish usullari. *Scienceweb academic papers collection*.
17. Muzaffarova, X. (2020). КОРРЕКЦИОННО-ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ РАБОТА С ДЕТЬМИ ИМБЕЦИЛАМИ. *Scienceweb academic papers collection*.
18. Muzaffarova, X. (2020). ТОПИШМОҚЛАР ВОСИТАСИДА БОЛАЛАР НУТҚИНИ ЎСТИРИШ. *Scienceweb academic papers collection*.
19. Muzaffarova, X. (2020). ЁРДАМЧИ МАКТАБ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН МУЛОҚОТ ТУРЛАРИ. *Scienceweb academic papers collection*.
20. Muzaffarova, X. (2021). ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARGA BARVAQT YORDAM TIZIMINI TASHKILLASHTIRISH MASALALARI. *Scienceweb academic papers collection*.
21. Muzaffarova, X. (2021). IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN OLIV BORILADIGAN TA'LIM-TARBIYA ISHLARI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH. *Scienceweb academic papers collection*.
22. Muzaffarova, X. (2020). АҚЛИ ЗАИФ ЎҚУВЧИЛАР МУЛОҚОТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ЯНГИЧА ЁНДОШИШ. *Scienceweb academic papers collection*.
23. Muzaffarova, K. N., & XXX, O. I. (2020). IDENTIFICATION OF MENTALLY RETARDED CHILDREN. *Scienceweb academic papers collection*.
24. Muzaffarova, X. (2020). THE CORRECTIVE IMPORTANCE OF INCLUSIVE EDUCATION FOR CHILDREN WITH DISABILITIES. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*.
25. Muzaffarova, X. (2020). Inklyuziv ta'lim-yosh avlodni ijtimoiy himoyalashning muhim omili sifatida. *Scienceweb academic papers collection*.

26. Muzaffarova, X. (2021). HORIJIY MAMLAKATLARDA AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR MAZMUNI. *Scienceweb academic papers collection*.

27. Muzaffarova, X. (2021). AQLI ZAIFLIK TUSHUNCHASI TALQINIDAGI NAZARIY XATOLARNING SALBIY OQIBATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2).

28. Muzaffarova, X. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. *Scienceweb academic papers collection*.

29. Muzaffarova, X. (2021). BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUQSONLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Scienceweb academic papers collection*.

Muzaffarova, X. (2021). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI. *Scienceweb academic papers collection*.